

**BULAJAK BOSHLAG'ICH SINF O'QITUVCHILARINI KASBIY INNOVATSION
PEDAGOGIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH**

Karimjanov Alijan

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti "Boshlang'ich ta'lim metodikasi" kafedrası
dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi*

Karimjanova Dilnoza

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti "Fakultetlararo rus tili va adabiyoti" kafedrası
o'qituvchisi*

ARTICLE INFO

ABSTRACT:

ARTICLE HISTORY:

Received:18.04.2025

Revised: 19.04.2025

Accepted:23.04.2025

KEYWORDS:

*Innovatsion,
pedagogik tajriba,
kasbiy faoliyat,
rasmiyatchilik,
hududlar, tahlil qilish,
chuqur o'rganish,
tajriba-sinov, shakl va
usullar, malakalar,
ishbilarmon, tuman-
shahar, yetakchilar,
dastur, rejalashtirish,
faoliyat.*

*Maqolada o'quv muassasalarda boshlang'ich
ta'lim o'qituvchilarini kasbiy faoliyatini
rivojlantirishda innovatsion pedagogik
yondashuvlarni rivojlantirish va tajriba maktablari
faoliyatini texnologik asoslarini o'rganishning
mazmun va mohiyati, ularning holati va
takomillashtirish usullari ko'rsatilgan*

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «ta'lim islohotlari ishlari samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» 2019-2021-yil 3 maydagi PQ-4307-son qarori ijrosini ta'minlash, shuningdek, yoshlarni mustaqil hayotga dunyoqarashi keng, faol fuqarolar etib tarbiyalash maqsadida Vazirlar Mahkamasida muhokama qilgan qarorlar, 2030 yilga qadar O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida nazarda tutilgan chora tadbirlar, ayniqsa o'qituvchilarni kasbiy

faoliyatini rivojlantirish bilan bog'lik vazifalarni samarali amalga oshirish, ularni tinch-osoyshta hayot uchun eng zarur tayanch kompetensiyalar bilan ta'minlash ta'lim muassasalarida ma'naviy va ma'rifiy chora tadbirlarni baholashning ilmiy asoslangan indikatorlarini ishlab chiqish, onaning homiladorlik davrini to'g'ri tashkil etish, go'daklar va bolalarni ma'naviy tarbiyalash bo'yicha asosiy yo'nalishlarni belgilashga e'tibor berish hozirgi zamon ta'lim- tarbiya tizimini asosiy talabi hisoblanadi. Xususan:

1. Hozirgi bosqichda innovatsion pedagogik tajriba maktabi ishining vazifasi va mazmuni.
2. Innovatsion pedagogik tajriba maktablari ishini rejalashtirish, dasturi va tashkil etish, ular ishining shakllari va usullari.
3. Qayta qurish va darsga ijodiy yondashishning mohiyati.
4. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarida mustaqillik ko'nikma va malakalarini shakllantirish.
5. Sinf dan tashqari ishlarni tashkil etish va o'tkazish.
6. Vizualizatsiya va texnik o'qitish vositalaridan foydalanish.

Zamonaviy innovatsion faoliyat ta'lim oluvchilar va tarbiyalanuvchilarga pedagoglar tomonidan kasbiy pedagogik maqsadlarni amalga oshiruvchi ta'sir kursatilishini tashkil qilish tizimi hisoblanadi. Zamonaviy innovatsion faoliyat pedagogik faoliyatni aniq maqsadlar asosida tashkil qilish va tizimning asosiy belgisi kutilgan natijaga erishishni kafolatlanadi. Buning uchun asosiy maqsadga erishishning har bir bosqichida bajarilishi lozim metodlarning aniq modullari yoki algoritmlari hosil qilinadi.

Noinnovatsion tizim bu xususiy metodikalar bulib, kutilgan natijalarga erishishni kafolatlanmaydi. Zamonaviy innovatsion faoliyat ratsional asosidagi ilmiy mezonlarga asoslangan bulishi bilan birga, uning yanada rivojlanishida intuitiv bilimlar ham muhim ahamiyatga ega. Fanga muvofiq qurilgan yangi pedagogik amaliyot innovatsion pedagogik faoliyatdir.

Zamonaviy innovatsion pedagogik faoliyat bir qancha texnologik asoslarga ega, bulardan eng ahamiyatlilari ijtimoiy, falsafiy, metodologik, didaktik, pedagogik, psixologik, fiziologik, gigienik, mafkuraviy, huquqiy-me'yoriy, iqtisodiy va tarixiy asoslar hisoblanadi.

Zamonaviy innovatsion texnologiyaning ijtimoiy asosi har bir shaxs usha jamiyatdagi ta'lim-tarbiya sohasidagi extiyojlaridan kelib chiqan holda shu jamiyatning extiyojlarni, talablarini, qondirishning maqsad va usullar sifatida belgilaydi. Bu asos shaxsning, jamiyatning va davlatning rivojlanishida asosiy omillardan hisoblanadi.

Zamonaviy innovatsion pedagogik texnologiyani falsafiy asosi esa-tashkiliy shakl va usullarining falsafiy jihatdan tug'ri yunalishda ekanligini ta'minlashga xizmat qiladi. Bu

hozirgi zamon texnologiyasini tug'ri yoki notug'riligi, hayotga muvofiq yoki zidligini kursatadi.

Zamonaviy innovatsion pedagogik texnologiyaning metodologik asosi uni amalga oshirishda qanday metodlarga asoslanib hayotga tadbiiq etishini aniqlaydi. Hozirda ta'lim – tarbiya haqida haqqoniy bilimlar hosil qilish va uni hayotga, jamiyatga va tabiatga bog'lashning ilmiy metodologiyasi zamonaviy innovatsion pedagogik texnologiyaning metodologik asosi hisoblanadi.

Zamonaviy innovatsion pedagogik texnologiyaning didaktik asosi –bu ta'lim- tarbiya prinsiplari, qonuniyatlari va tamoillarini hozirgi zamon talab darajasida amalda qullanishini ispotlab amalga tadbiiq etadi. Didaktik asos ta'lim tarbiya jarayonini holatlari, samaradorligi, zamonaviyligini va qisqa muddata yuqori saviyaga ega bulishda asosiy tizim hisoblanadi. Bu asosdan , uning ilmiy xulosalaridan ta'lim tarbiyada ijodiy foydalanish katta ahamiyatga ega.

Innovatsion texnologiyaning pedagogik asosi zamonaviy pedagogika fanining ilmiy tadqiqot xulosalaridan kelib chiqadi. Bunda zamonaviy innovatsion texnologiyaning umumiy tarkibiy tuzilishi, mazmuni va mohiyati, shakli, usullari, vositalari, pedagogik jarayonni tashkil qilinishi va olib borilishi, uning diagnostikasi va manitoringi kabilarning ilmiy va tarbiyaviy jihatdan tug'ri olib borishni ta'minlaydi.

Zamonaviy innovatsion pedagogik texnologiyaning psixologik asosi bolani shaxsiy tarkibini, diagnostika qilish muammolari, psixologiya fanining ilmiy xulosalarini tavsiyalari bilan asoslanib beradi. Ulardan ta'lim–tarbiya jarayonidan tug'ri foydalanish orqaligina kutilgan natijaga erishish mumkin. Shu nuqtai nazardan psixologik holatlarda psixologik qonkniyatlaridan tuliq foydalanish talabga muvofiqdir.

Zamonaviy innovatsion pedagogik texnologiyaning fiziologik asosi bu ta'lim tarbiya jarayonida yoshlarni yosh xususiyatlarini nazarga olish va shu asnoda zamonaviy tizimni bunga asoslanishdan iboratdir. Bu asos talabalarni fizianomiyalariga, ug'il va qiz bolalarni fiziologiyasidagi farqlarga qarab ta'lim tarbiyani qay darajada tashkil qilishni va muomalla qilishni alohida talab etadi. Gigienik asos esa ta'lim-tarbiya jarayonida sog'likni saqlash tizimga katta nazar tashlash va ortiqcha turli zararlarni, ta'sirlarni, muammolarni bartaraf qilish jumladan; harorat, havoni tozaligi, o'quvchining turmush tarzi va ijtimoiy holati, o'qituvchilarning yuklama me'yorlari, didaktik vositalarining qulaylikligi hamda ekologiya talablariga muvofiq ilmiy asoslar sanaladi.

Mafkuraviy asos esa milliy istiqlol g'oyasi va mafkurasi tamoillarini uzida mujassam etishi va ularni amalga oshirishga yunaltirilgan buladi. Bunda barkamol insonni

shakllantirishda mafkuraviy tarbiyaning fidoiy, mustaqil fikrlay oladigan, xulq atvori bilan boshqalarga ibrat buladigan, bilimli, marifatli, ijtimoiy faol insonni voyaga yetkazishdan iborat asosiy vazifalarni amalga oshirib borishi har bir zamonaviy innovatsion pedagogik texnologiyaning dolzarb muammolaridan hisoblanadi.

Innovatsion texnologiyaning huquqiy-me'yoriy asosi ta'lim tarbiya jarayonini tashkil qilish va amalga oshirishga doir direktiv hujjatlar bilan bog'liq bulib, O'zbekiston respublikasi prezidentining qator qonun farmoishlari, Vazirlar maxkamasining qarorlari va o'quv muassasalarining nizomlarini uz vaqtida amalga oshirishda xizmat qiladi. O'quv muassasalarida ishlayotgan har bir mutaxassis huquqiy-me'yoriy hujjatlarni foydalanish asoslarini yaxshi bilishi talab karda meshavad.

Zamonaviy innovatsion pedagogik texnologiyaning iqtisodiy asosi ta'lim menejmenti xulosalari va marketing tadqiqotlari natijalariga muvofiq belgilanadi. Iqtisodiy asos ijtimoiy sohadagi faoliyat bulgani sababli uning iqtisodiy samarasi uziga xos tartiblarda aniqlanadi va ta'minot masalalari hal qilib boriladi. Zamonaviy innovatsiyani iqtisodiy asosining mustahkam bulishi bu uni amaliyotda davom etirish uchun zaruriy asos hisoblanadi.

Innovatsion pedagogik texnologiyaning tarixiy asosi ta'lim-tarbiya masalalarini, pedagogik tizimni tarixiy davrlarini, Sharq va G'arb mamlakatlar allomalarini pedagogik, ma'rifatparvarlik va maorifparvarlik g'oyalarini tarixiy muammolarini asoslantirib beruvchi bir kuch sifatida xizmat qiladi. Hozirgi pedagogik texnologiyalar turli davrlarda boshlangan ishlar, tahlillar, xulosalar, mutafakkirlar bildirgan fikr mulohazalarning rivojlantirilishi asosida paydo budib, takomillashtirib borgan. Zamonaviy pedagogik tarbiya tizimning tarixiy asosi uning uziga xos ildizlarini tashkil qilishini hisobga olgan holda ularni bilish va chuqur urganish kelajak rivojlanish yullarini belgilashda muhim ahamiyatga ega. Yuqorida aytilganlar va boshqa asoslar umumlashtirilsa, har bir zamonaviy innovatsion texnologiyalar ham uz nazariy va amaliy asoslarini keltirib chiqaradi. Ular alohida maqsod, vazifalari, mazmun mohiyati, shakl, usul va uslub hamda qandaydir vositalarga muvofiq belgilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. .Mirziyoev Sh. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz (1-qism), O'zbekiston, Toshkent, 2018, 25-b.
- 2.Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi «Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31 dekabrda 1059-son qaroriga 1-ILOVA
- 3.A.Karimjonov. "Pedagogik tizimini boshqarish asoslari" Toshkent Nizomiy nomidagi TDPU. 2008 y.
- 4.A.Karimjonov. "Ta'lim tizimini boshqarish asoslari".Toshkent Nizomiy nomidagi TDPU. 2012 y.
- 5.A.Karimjonov. "Uquv muassasalarida me'oriy hujjatlar yuritish" Chirchiq 2020 y.
- 6.A.Karimjanov. «Roxhoi tashkili korhoi mustaqilona».Dasturi texnology. Chirchiq 2019.
- 7.A.Krimjanov D.Karimjanova «ALIFBO, bozy va inkishofi nutq.» (O'quv qullanma) Hamkor nashriyoti. Toshkent .2020.
- 8.A.Karimjanov. F.Ochilov "Boshlang'ich sinflarda ta'lim tarbiya muammolari". Toshkent. "IRFON" 2021 y.